

**ISSN** INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
ISSN 2992-9229



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2024 №2  
(4)

Samarqand-2024

ISSN 2992-9229




# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2024



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Bosh muharrir:**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

**Juliboy ELTAZAROV**

*f.f.d., professor (O‘zbekiston)*

**Roxila RUZMANOVA**

*f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

**Rustam XALMURADOV** – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);

**Hakim XUSHVAQTOV** – f.m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

**Akmal AHATOV** – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

**Muslihiddin MUHIDDINOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Ibodulla MIRZAYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Shuhrat SIROJIDDINOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Suyun KARIMOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Murodqosim ABDIYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Azamat PARDAYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Musa YULDASHEV** – f.f.n., professor (O‘zbekiston);

**Dilfuza DJURAKULOVA** – t.f.n., professor (O‘zbekiston);

**Aftondil ERKINOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Qosimjon SODIQOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Hamidulla DADABOYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Hotam UMUROV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

**Mardon BOLTAYEV** – dotsent (O‘zbekiston);

**Ali AKAR** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Abduselam ARVAS** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Funda TOPRAK** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Musa Shamil YUKSEL** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Temur KOJAO‘G‘LI** – f.f.d., professor (AQSH);

**Hayrunnisa ALAN** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Varis CHAKAN** – f.f.d., professor (Turkiya);

**Almaz ULVI** – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

**Emrah YILMAZ** – Phd, dotsent (Turkiya);

**Foziljon SHUKUROV** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

**Dilshod XURSANOV** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

**Shahnoza XUSHMURODOVA** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

**Dinara ISLAMOVA** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

**Feruza JUMANIYAZOVA** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

**Feruza MANUKYAN** – Phd (O‘zbekiston);

Mas‘ul muharrir: **PhD Zokir BAYNAZAROV** (O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV** (O‘zbekiston).



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Главный редактор:**

**Заместитель главного редактора:**

**Жулибой ЭЛТАЗАРОВ**

*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

**Рохила РУЗМАНОВА**

*к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Рустам ХАЛМУРАДОВ** – д.т.н., профессор,  
ректор Самаркандского государственного  
университета имени Ш.Рашидова  
(Узбекистан);

**Хаким ХУШВАКТОВ** – д.ф.м.н., профессор,  
проректор по научной работе и инновациям  
Самаркандского государственного  
университета имени Ш.Рашидова  
(Узбекистан);

**Акмал АХАТОВ** – д.т.н., профессор,  
проректор по международному  
сотрудничеству Самаркандского  
государственного университета имени  
Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Муслихиддин МУХИДДИНОВ** – д.ф.н.,  
профессор (Узбекистан);

**Ибодулла МИРЗАЕВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Шухрат СИРОЖИДДИНОВ** – д.ф.н.,  
профессор (Узбекистан);

**Суюн КАРИМОВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Муродкасым АБДИЕВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Азамат ПАРДАЕВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Муса ЮЛДАШЕВ** – к.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА** – к.и.н., доцент  
(Узбекистан);

**Афтондил ЭРКИНОВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Касимжон СОДИКОВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Хамидулла ДАДАБОЕВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Хотам УМУРОВ** – д.ф.н., профессор  
(Узбекистан);

**Мардон БОЛТАЕВ** – доцент (Узбекистан);

**Али АКАР** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Абдуселам АРВАС** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Фунда ТОПРАК** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ** – д.ф.н., профессор  
(Турция);

**Темур КОДЖАОГЛУ** – д.ф.н., профессор  
(США);

**Хайрунниса АЛАН** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Варис ЧАКАН** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Алмаз УЛЬВИ** – д.ф.н., профессор  
(Азербайджан).

**Эмрах ЙИЛМАЗ** – PhD, доцент (Турция);

**Фозилжон ШУКУРОВ** – PhD, доцент  
(Узбекистан);

**Дилшод ХУРСАНОВ** – PhD, доцент  
(Узбекистан);

**Шахноза ХУШМУРОДОВА** – PhD, доцент  
(Узбекистан);

**Динара ИСЛАМОВА** – PhD, доцент  
(Узбекистан);

**Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА** – PhD, доцент  
(Узбекистан);

**Феруза МАНУКЯН** – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD Зокир  
БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ  
(Узбекистан)**



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMİY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)*  
*Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)*

**Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)*  
*Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)*

## EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

*Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV* – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV* – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Akmal AKHATOV* – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV* (Uzbekistan)

*Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Suyun KARIMOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Azamat PARDAEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Musa YULDASHEV* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Aftondil ERKINOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Khamidulla DADABOEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Khotam UMUROV* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. Mardon BOLTAEV* (Uzbekistan);

*Prof. Dr. Ali AKAR* (Turkey);

*Prof. Dr. Abduselam ARVAS* (Turkey);

*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Turkey);

*Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL* (Turkey);

*Prof. Dr. Temur KOJAĞLU* (USA);

*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Turkey);

*Prof. Dr. Varis CHAKAN* (Turkey);

*Prof. Dr. Almaz ULVI* (Azerbaijan);

*Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ* (Turkey);

*Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA* (Uzbekistan);

*Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA* (Uzbekistan);

*Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA* (Özbekistan);

*Dr. Feruza MANUKYAN* (Özbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

*Prof. Dr. Rustam HALMURADOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

*Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

*Prof. Dr. Akmal AHATOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

*Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Suyun KARİMOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Azamat PARDAYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Musa YULDAŞEV* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Kasimjon SODİKOV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Hamidulla DADABOYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Hotam UMUROV* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV* (Özbekistan);

*Prof. Dr. Ali AKAR* (Türkiye);

*Prof. Dr. Abdusalem ARVAS* (Türkiye);

*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Türkiye);

*Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL* (Türkiye);

*Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU* (ABD);

*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Türkiye);

*Prof. Dr. Varis ÇAKAN* (Türkiye);

*Prof. Dr. Almaz ÜLVİ* (Azerbaycan);

*Doç. Dr. Emrah YILMAZ* (Türkiye);

*Doç. Dr. Foziljon ŞUKUROV* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA* (Özbekistan);

*Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA* (Özbekistan);

*Dr. Feruza MANUKYAN* (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA OID TADQIQOTLAR

<b>Qosimjon SODIQOV</b>	
«DEVONU LUG‘ATI-T-TURK» MATNIDAGI HARAKAT BELGILARI VA TURKIY SO‘ZLARNING O‘QILISHI MASALASI.....	9
<b>Hamidulla DADABOYEV</b>	
“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA QORAXONIYLAR DAVRI SAVDO-MOLIYA ISTILOHLARI TIZIMINING AKS ETISHI.....	19
<b>Shuhrat SIROJIDDINOV, Zulxumor XOLMANOVA</b>	
“DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING ADABIY-MA‘RIFIY QIYMATI.....	27
<b>Jo‘ra XUDOYBERDIYEV</b>	
“DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING O‘ZBEK TARJIMONLARI VA ULARNING TARJIMALARI NASHRLARI HAQIDA.....	35
<b>Baxtiyor ABDUSHUKUROV</b>	
“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI O‘G‘UZCHA SO‘ZLAR.....	49
<b>Vazira ALIMBEKOVA</b>	
JANUBI-SHARQIY ANDIJON LINGVOAREALI LEKSIKASINING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA MUNOSABATI.....	58
<b>Alima PIRNIYAZOVA</b>	
MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘AT-IT-TURK” ASARI VA QORAQALPOQ TILI .....	71
<b>Umurzoq JUMANAZAROV</b>	
FITRAT “DEVONU LUG‘ATIT TURK” TADQIQOTCHISI.....	78
<b>Shuxrat ABDULLAYEV</b>	
“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”NING O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILI LEKSIKASIDA TUTGAN O‘RNI .....	86
<b>Ahrorbek AZIZOV</b>	
“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA XALQ O‘YINLARI TALQINI. ....	93
<b>Sarvar QO‘LDOSHEV</b>	
“DEVONU LUG‘OTIT TURK” DA DAVLATCHILIK BELGILARI .....	103
<b>Ozoda SHARIPOVA</b>	
“DEVONU LUG‘OT-AT TURK” ASARIDA KELTIRILGAN VATAN VA VATANPARVARLIK MAVZUSIDAGI PAREMALARNING SEMANTIK TADQIQI.....	111

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

<b>Sirojiddin XO‘JAQULOV</b>	
TOJIK MA‘RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTIDA TURK TANZIMAT DAVRI ADABIYOTINING TA‘SIRI .....	117
<b>Osman EMIN</b>	
BALKAN TÜRK EDEBİYATI’NDA TÜRK DÜNYASI .....	128
<b>Muso YULDASHEV</b>	
LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN YANGI O‘ZBEK ALIFBOSI VA TURK-RUN YOZUVI TARIXIGA BIR NAZAR .....	139
<b>Shohista JUMANOVA</b>	
CHO‘LPON POETIKASI (UNING NASRIY ASARI : “KECHA VA KUNDUZ” ASOSIDA) ....	145

TURKIY AXALQLARNING IJTIMOYIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

<b>Мирвари ИСМАЙЛОВА</b>	
КУЛИНАРНЫЙ КУЛЬТ АЗЕРБАЙДЖАНСКОГО НАРОДА В КОНТЕКСТЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МАТЕРИАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ .....	152
<b>Oybek BARZIYEV</b>	
HIJRON MAVZUSI BILAN BOG‘LIQ AN‘ANAVIY POETIK TURKUMLAR ( <i>Milliy uyg‘onish davri o‘zbek, qozoq, arman she‘riyati misolida</i> ).....	162
KITOB TANITUVI / KITAP TANYŞDYRYŞ / BOOK REVIEW .....	168



#### **AZIZ MUSHTARIY!**

*Qadim o‘tmishga ega bo‘lgan har bir xalqning madaniyat va sivilizatsiya hamjamiyatida o‘z izini qoldirgan asarlar mavjud. Shu jihatdan turkiy sivilizatsiyaning madaniy kodlarini ochib beruvchi va har o‘qilganida yangidan yangi ma‘nolar olamini ochuvchi turkologiyaning durdona asarlaridan biri “Devonu Lug‘otit Turk”dir. Ma‘lumki, YUNESKO Bosh Assambleyasining 42-sessiyasida qabul qilingan qaror bilan 2024-yil Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu Lug‘otit Turk” asari yozilganining 950 yilligi sifatida nishonlash belgilandi. Shu nuqtai nazardan, Ilmiy kengashimiz qalam va minnatdorchilik qarzi sifatida jurnalimizning 4-sonini Turk dunyosining bu noyob xazinasini yana bir bor kashf etish va uning muallifini hurmat bilan yodga olish maqsadida uni maxsus son sifatida nashr etishga qaror qildi.*

*Bu sonda “Devonu Lug‘otit Turk”da xalq o‘yinlari, Janubi-Sharqiy Andijon leksikologiyasining “Devonu Lug‘otit Turk” bilan aloqasi, Qoraxoniylar davri savdo-iqtisodiy leksikasining devonda aks ettirilishi, devonning o‘zbekcha tarjimalari va tarjimonlar, devon matnidagi harakat belgilari va turkiy so‘zlarni o‘qish masalalari, devondagi davlatchilik tamoyillari, asarning o‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikologiyasidagi o‘rni, vatan, vatanparvarlik haqidagi paremalarning semantik tahlili, kitobning adabiy-pedagogik ahamiyati, o‘g‘uzcha so‘zlar, tojik va jadid adabiyotida turk tanzimat davri adabiyotining ta‘siri mavzusiga oid maqolalar o‘rin olgan.*

#### **TAHRIRIYAT**

#### **DEAR READER!**

*Each nation with a rich history has works that have profoundly influenced its cultural and civilizational landscape. Among such treasures in Turkology is the masterpiece Devonu Lugatit Turk, which unveils the cultural codes of Turkish civilization and reveals new layers of meaning with every read. In recognition of its significance, the 42nd UNESCO General Assembly designated 2024 as the 950th anniversary of Mahmud Kashgari’s Devonu Lugatit Turk. In celebration, our Scientific*

*Council has decided to dedicate the 4th issue of our magazine to honoring this unparalleled work and its esteemed author.*

*This issue will explore various topics related to *Devonu Lugatit Turk*, including traditional folk games, the relationship between Southeast Andijan lexicology and the *divan*, reflections of the trade and economic lexicon of the Karakhanid period, Uzbek translations and their translators, interpretations of Turkic words in the *divan*, principles of statehood, and semantic analysis of poems focused on homeland and patriotism. Also featured are articles on the book's literary-pedagogical value, the presence of *Ugz* words, and the influence of Turkish *Tanzimat*-era literature on Tajik and contemporary literature.*

## EDITORIAL BOARD

### SEVGİLİ OKUYUCU!

*Kadim geçmişi olan her milletin kültür ve medeniyet camiasına damgasını vurmuş eserleri vardır. O bakımdan Türk medeniyetinin kültürel kodlarını ortaya koyan ve muhtevasıyla her okunuşta yeni açılımlar sağlayan Türkolojinin başyapıtlarından biri de asırlar boyu elden ele dilden dile dolaştırılan *Kitâbu Dîvânu Lugâti't-Türk* adlı eserdir. Bilindiği üzere UNESCO Genel Kurulu'nun 42. oturumunda alınan kararla 2024 yılı, Kâşgarlı Mahmut'un *Dîvânu Lugâti't-Türk* adlı eserinin yazılışının 950. yıl dönümü olarak kutlanmaktadır. Bu kapsamda Bilim Kurulumuz, bir kalem ve gönül borcu olarak dergimizin 4. sayısını; Türk dünyasının bu eşsiz hazinesini bir kez daha keşfetmek ve müellifini saygıyla hatırlamak adına özel sayı olarak yayımlamaya karar vermiştir.*

*Bu sayıda “*Dîvânu Lugâti't-Türk*'te halk oyunları, Güneydoğu Andican leksikolojisinin *Dîvânu Lugâti't-Türk* ile ilişkisi, Karahanlılar Dönemi ticari-iktisadi istilahların *dîvâna* yansımaları, *dîvânın* Özbekçe tercümelemleri ve tercümanlar, *dîvân* metnindeki hareket fiilleri, işaretler ve Türkçe sözlerin okunma sorunları, *dîvânda* devletçilik prensipleri, eserin Özbek ve Karakalpak dilleri leksikolojisindeki yeri, *dîvânda* geçen vatan ve vatanperverlik konularındaki *paremilerin* (atasözlerinin) semantik tahlili, kitabın edebî ve pedagojik kıymeti, Oğuzca sözler, Tacik ve Cedit Edebiyatı'na *Tanzimat* dönemi Türk Edebiyatı'nın etkisi, Türk Bitig Taşları'nın Semerkant vilayeti Karluk şiveleriyle münasebeti, Çolpan'ın poetikası, hicran temasıyla ilgili geleneksel poetik birlikler” gibi konu başlıklarına yer verilmiştir.*

## YAYIN KURULU

### УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

*У каждого народа с древней историей есть произведения, оставившие след в общности культуры и цивилизации. В этом отношении раскрываются культурные коды турецкой цивилизации, шедевры тюркологии, открывающие мир новых смыслов каждый раз, когда его читают, одним из таких произведений можно назвать- «Диван лугат-ат-турк». Как известно на 42 сессии Генеральной Ассамблеи ЮНЕСКО принято решение о праздновании 950-летия сборника тюркских наречий Махмуда Кошгари «Диван лугат-ат-турк» в 2024 году.*

*С целью почтить память великого ученого наш научный совет решил посвятить 4 -й номер журнала этому уникальному сокровищу турецкого мира и опубликовать его в виде специального выпуска. Статьи этого сборника посвящены народным играм, представленным в «Диван лугат-ат-турк»; связь Южно-Шарайской Андижанской лексикологии с «Диван лугат-ат-турк», отражению в торгово-экономической лексики эпохи Караханидов в словаре; узбекским переводам и переводчикам словаря, принципам государственности, месту узбекской, каракалпакской лексики в произведении; семантическому анализу *paremий* о родине и патриотизме, значению литературно-педагогической составляющей книги; исследованию огузских слов в таджикской и джадидской литературе; тюркской литературе периода *танзимата*.*

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

**“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI HAQIDA!**

*Eng qadimgi turkiy til tadqiqotchilaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariy, o‘zining yuksak lingvistik bilimlari bilan turkologiyaga beqiyos hissa qo‘shgan. U Turk dunyosining til, adabiyot va umuman madaniyat jihatdan Markaziy Osiyodagi eng yorqin davri hisoblangan Qoraxoniylar davrida yashagan. Madrasayi Hamidiyye va Madrasayi Sajiyyeda tahsil olgan olim, turk dunyosiga ikkita noyob xazinani taqdim etgan bo‘lib, bular “Devonu lug‘otit Turk” va “Javoqir un-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asarlaridir. “Devonu lug‘otit Turk”ning asl qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Dunyodagi yagona nusxasi Muhammad b. Abu Bakr ibni Abulfath Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. Bu nusxani Ali al-Emiriy qo‘lga kiritgan. Koshg‘ariyning devonda tilga olingan, ammo bugungi kungacha yetib kelmagan “Javoqirun-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asari esa yo‘qolgan. Xuddi bir paytlar turklar orasida tarqalgan “Buyuk Xon Ato Bitig” va “O‘g‘uznoma” asarlari kabi bu kitob ham turkologiyaning yo‘qolgan asarlaridan bo‘lib, bugungi Ali Amiri Afandilarni, haqiqiy kitob do‘stlarini kutmoqda...*

*“Devonu lug‘otit Turk” asari Qoraxoniylar davri turk olimi va yozuvchisi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1072-1074-yillar orasida yozilgan. O‘z davrining eng mashhur olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg‘ariy bu asarni yozgan davrida arab tilining turk tilidan ko‘ra mavqei yuqori til ekanligi iddaosiga qaramay, turk tilining boy til ekanligini isbotlash maqsadida “Lug‘at” kitobi uslubida yaratgan. Bu yuksak til salohiyatining ikkinchi misolini buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tomonidan turk tilining boshqa tillardan kam emasligini dalillash maqsadida yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari misolida ko‘rish mumkin. Xullas, Abdulla Oripov e‘tirof etganidek, Temurning qilichi yetmagan joyga qalami bilan yetgan, jang maydonida emas, balki ilm-fan va tafakkur yo‘lida kurash olib borgan ikki buyuk alloma sifatida butun turk dunyosining diqqat markazidadir.*

*Koshg‘ariy yillar davomida turk mamlakatlarini kezib, o‘zi ilmiy sohalarda tadqiqot olib borgan va so‘zdan tortib etimologiyasigacha ko‘rgan deyarli barcha madaniy elementlarini yozib olgan. Koshg‘ariy o‘z so‘zlari bilan: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqizlarning (qirg‘izlarning) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim.”-deydi. Binobarin, Koshg‘ariy turk qabilalari, madaniyati va urf-odatlarini haqida katta hajmli material to‘plash orqali arab muhitiga turk tili va madaniyatini olib kirish, turk tili haqida yozgan grammatikasi bilan arablarga turk tilini o‘rgatishni maqsad qilgan. Shunday qilib, devon; arablarga turk tilini o‘rgatish va turk tilining arab tili kabi boy til ekanligini va undan kam emasligini ko‘rsatish maqsadida yozilgan ilk turkcha lug‘at sifatida ma‘lum.*

*Devonu Lug‘otit Turk madaniyatimiz va sivilizatsiyamizni ko‘p jihatdan aks ettirish nuqtai nazaridan turkiylikning asosiy asarlaridan biridir. Kitobning yaratilishida turkiy so‘zlar arab qoidalariga ko‘ra tartibga solingan va arabcha muqobillari bilan ma‘nosini topgan. Koshg‘ariy bu asarni yozganidan uch yil o‘tib, Abbosiylar xalifasi Muqtadiy Billohga taqdim etadi. Uning bu xatti-harakatini turkiy tilning ustunliklarini davlat tomonidan ma‘qullash sifatida baholash mumkin. Bundan uch yuz yil o‘tib, lug‘at ilk bor Kilisli Rifatning tuzatishi bilan nashr etilgan; 1943-yili Turk tillari jamiyati a‘zosi Besim Atalay tomonidan arab harflari lotin harflarida o‘z muqobilligini topgan. Devonning o‘zbek nashrlari bo‘yicha ilk tadqiqotlar 1940-yillarda boshlangan. O‘zbekistondagi nashrlar haqida batafsil ma‘lumotni ushbu sondagi maqolalardan olishingiz mumkin.*

*Koshg‘ariy madrasada tahsil olgani uchun o‘qigan dars materiallari formatini o‘zlashtirib, ijodida mumtoz arab kitoblaridagi usulga amal qilgan. Boshqacha aytganda, Devonu Lug‘otit Turk nomli asar; Muqaddima hamd, salovat va salom bilan boshlanib, ish oxirida duo bilan yakunlanadi. Asar nafaqat lug‘at, balki hikmatlar, she‘rlar, ayot va hadislar, turkiy qabilalarga oid belgilar, sheva farqlariga oid muhim topilmalar, lingvistik materiallar mazmuni bilan ensiklopediya hisoblanadi. Buyuk turk olimi Mahmud Koshg‘ariyni asar yozilganining 950 yilligi munosabati bilan hurmat bilan yod etamiz.*

## JANUBI-SHARQIY ANDIJON LINGVOAREALI LEKSIKASINING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA MUNOSABATI

**ALIMBEKOVA Vazira Xalimjon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: [vaziraalimbekova96@gmail.com](mailto:vaziraalimbekova96@gmail.com)

**Annotatsiya:** Tilshunoslikning bir qismi bo‘lgan areal lingvistika bugungi kunda o‘rganilishi dolzarb bo‘layotgan yo‘nalishlardan biridir. Dunyo tilshunosligida ham areal lingvistika yo‘nalishida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilinayotgani hech kimga sir emas. O‘zbek shevalarining areal tadqiq qilinayotgani va bu sohada ko‘plab darslik va qo‘llanmalar yaratilayotgani yurtimizda ushbu sohaning ham rivojlanib borayotganidan darak beradi. O‘zbek shevalarining dialektal zonalarini, azonalarini va fokus nuqtalarini aniqlash va ularni lingvistik kartalarga joylashtirish hozirda dialektologlarning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadlaridan biridir.

Maqolada “Devonu lug‘otit turk” asaridagi qadimgi turkiy til leksikasining janubi-sharqiy Andijon shevalariga munosabati: tarixiy-etimologik tamoyilga asoslangan holda devonda va shevalarda shaklan va mazmunan bir xil so‘zlar, devondagi so‘zlarning qisman fonetik o‘zgarishga uchrab shevalarda aynan shu ma‘noda qo‘llanishi va devondagi ayrim so‘zlarning shevalarda mano ottenkalarining farqlanishi haqida shaxsiy kuzatish va xulosalar berilgan. Ushbu maqola dialektologiya sohasida hali areal lingvistika nuqtai nazaridan o‘rganilmagan janubi-sharqiy Andijon lingvoareali leksikasining tarixiy qatlamga munosabati ko‘rsatilganligi bilan ham ahamiyatli ekanligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** *sheva, dialekt, areal, leksika, lingvoareal, areal lingvistika, tarixiy qatlam.*

---

### THE ATTITUDE OF SOUTHEASTERN ANDIJAN LINGVO-AREAL LEXICON TO THE WORK “DEVONU LUG'OTIT TURK”

**Abstract:** Areal linguistics, which is a part of linguistics, is one of the directions that are being studied today. It is no secret that many scientific studies are being conducted in the field of areal linguistics in world linguistics. The fact that Uzbek dialects are being researched and many textbooks and manuals are being created in this field indicates that this field is also developing in our country. Determining dialectal zones, zones and focal points of Uzbek dialects and placing them on linguistic maps is one of the main goals of dialectologists.

In the article, the relationship of the lexicon of the ancient Turkish language in the work "Devonu lug'otit turk" to the dialects of southeastern Andijan: based on the historical and etymological principle, the words are the same in form and content in the Devon and the dialects, and the words in the Devon undergo a partial phonetic change in the dialects. In this sense, personal observations and conclusions are given about the use of certain words in the devan and the difference in meanings in the dialects. It is emphasized that this article is significant because it shows the relationship of the linguo-areal lexicon of southeastern Andijan to the historical layer, which has not yet been studied from the point of view of areal linguistics in the field of dialectology.

**Key words:** *dialect, area, lexicon, linguo-area, areal linguistics, historical layer.*

---

## ОТНОШЕНИЕ ЛИНГВОАРЕАЛА ЮГО-ВОСТОЧНОГО АНДИЖАНА К ПРОИЗВЕДЕНИЮ «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТУРК».

**Аннотация:** Ареальная лингвистика – часть языкознания, является одним из актуальных направлений. Не секрет, что в мировой лингвистике проводится множество научных исследований в области ареальной лингвистики. Ареальное исследование узбекских диалектов и создание множества учебников и пособий свидетельствует о развитии данной отрасли и в нашей стране. Установление диалектных зон, азон и фокусных точек узбекских диалектов и расположение их на лингвистических картах является одной из основных задач диалектологов.

В статье рассматривается соотношение лексики древнетюркского языка в произведении «Девону луготит тюрк» с диалектами юго-восточного Андижана: исходя из историко-этимологического принципа, одинаковые по форме и содержанию слова в Девон и диалектах и слова из Девона, претерпевшие частичное фонетическое изменение в диалектах. В этом смысле приводятся личные наблюдения и выводы об употреблении отдельных слов в диване и различии значений в диалектах. В данной статье показано отношение к историческому пласту лингвоареальной лексики юго-восточного Андижана, еще не изученного с точки зрения ареального языкознания в диалектологии.

**Ключевые слова:** *диалект, говор, ареал, лексика, лингвоареал, ареальное языкознание, исторический пласт.*

---

## GÜNEYDOĞU ANDICAN DILBİLİM SÖZLÜĞÜ'NÜN “DEVONU LUGATIT TÜRK” ESERİYLE İLİŞKİSİ

**Soyut:** Dilbilimin bir parçası olan alansal dilbilim, bugün üzerinde çalışılan alanlardan biridir. Dünya dilbiliminde alansal dilbilim alanında pek çok bilimsel çalışmanın yapıldığı bir sır değil. Özbek lehçelerinin araştırılıyor olması ve bu alanda birçok ders kitabı ve el kitabının oluşturulması, ülkemizde de bu alanın gelişmekte olduğunu göstermektedir. Özbek lehçelerinin ağız bölgelerini, bölgelerini ve odak noktalarını belirleyip dil haritalarına yerleştirmek diyalektologların temel amaçlarından biridir.

Makalede, "Devonu lug'otit turk" adlı eserde yer alan eski Türk dilinin söz varlığının güneydoğu Andican lehçeleriyle ilişkisi: tarihsel ve etimolojik prensiplere dayanarak, eserdeki kelimelerin şekil ve içerik bakımından aynı olduğu ortaya konmuştur. Devon ve lehçeleri ile Devon'daki kelimelerin lehçelerde kısmi bir fonetik değişikliğe uğraması bu anlamda bazı kelimelerin divandaki kullanımları ve lehçelerdeki anlam farklılıkları hakkında kişisel gözlem ve çıkarımlara yer verilmiştir. Bu makalenin diyalektoloji alanında alansal dilbilim açısından henüz incelenmemiş olan Güneydoğu Andican'ın dilsel-bölgesel sözlüğünün tarihsel katmanla ilişkisini göstermesi açısından önemli olduğu vurgulanmaktadır.

**Anahtar kelimeler:** *lehçe, lehçe, alan, sözlük, dil alanı, alansal dilbilim, tarihsel katman.*

---

**Kirish.** Bugungi fan va texnika rivojlangan zamonda narsa va predmetlarning nomlari o'zi bilan yo'q bo'lib ketayotgani, yoxud mohiyati saqlangan holda boshqa nom bilan ifodalanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Shunday bo'lsa-da, ayrim areallarda bizga tariximiz, ajdodlarimizning turmush tarzi, urf-odatlarini yodga solib turuvchi so'zlarning hali

hamon iste'molda ekani qadimgi turkiy til va shevalarni qiyosiy o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Umuman tilda, jumladan, shevalarda leksik ma'nolarning yaxlitligi katta ro'l o'ynaydi. “Leksik ma'nolarning yaxlitligi haqida gapirganda, fonetik o'zgarishlar emas, tub hamda tipologik o'zgarishlar ko'zda tutiladi. Har bir turkiy til o'z leksemasi, shuningdek, morfologiya va fonetikasida o'zining spetsifik xususiyatlariga ega bo'lsa-da, tilning lug'at fondi va grammatik qurilishida umumiylikni saqlab qoladi” [1,17].

Tilshunos olim A. Ishayev “Devonu lug'otit turk” va o'zbek shevalari” nomli tadqiqotida shunday yozadi: “Turkiy tillarni qiyosiy o'rganishga asos solgan ulug' tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida boshqa ko'pgina turkiy tillarga nisbatan o'zbek tiliga, xususan, o'zbek tilining komponentlari bo'lgan qipchoq, o'g'uz hamda qorluq-chigil-uyg'ur lahjalariga (aniqrog'i, mazkur lahjalarning sheva, dialektlariga) oid turli xil fonetik, grammatik, ayniqsa, leksik faktlar ko'proq uchraydi. Bu birinchidan o'zbek xalqining tashkil topishida ko'pgina urug'-qabilalar (masalan, 92 bovli o'zbek elati) ishtirok qilganligi, ikkinchidan esa turkiy tillardan birontasi o'zbek tili singari ko'p va xilma-xil sheva, dialektlarga ega emasligi bilan izohlanadi. Biri ikkinchisining taqozosi bo'lgan bu ikki faktor tufayli o'zbek shevalarida turkiy yozma yodgorliklarda qayd etilgan va qayd etilmagan, shuningdek, umumturkiy tillar uchun mushtarak bo'lgan va mushtarak bo'lmagan ko'pgina lingvistik faktlar saqlanib qolgan” [2, 63-67].

Shevalarni o'rganish jarayonida tilshunoslar ko'pgina metodlardan atroficha foydalanishadi. “O'zbek shevalarini o'rganishda shevalarga xos xususiyatlarni birgina tasviriy-tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtai nazardan baholanishi ko'plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, arealogik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muammolarning yechimini topishda juda katta yordam beradi” [3, 19].

**Asosiy qism.** Ma'lumki, “Devonu lug'atit turk” asari tilshunoslikdagi juda ko'p masalalarni oydinlashtirishga yordam beruvchi birlamchi tarixiy manbalardan biridir [4, 105]. Ana shunday masalalardan biri bu bugungi kunda janubi-sharqiy Andijon areallarida qo'llanayotgan shevaga xos bo'lgan so'zlarni “Devonu lug'otit turk” asaridagi qadimgi turkiy tildagi so'zlar bilan solishtirish.

“Devonu lug'otit turk” asarini quyidagi bandlarda janubi-sharqiy Andijon shevalari bilan qiyoslaymiz:

1. “Devonu lug'otit turk” asaridagi so'zlar bilan shevalardagi shaklan va mazmunan bir xil so'zlar.
2. “Devonu lug'otit turk”dagi so'zlar bilan talaffuzda qisman farq qiluvchi, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan shevalardagi so'zlar.
3. “Devonu lug'otit turk” asaridagi so'zlarning ma'no ottenkalari o'zgargan shaklda shevalarda qo'llanishi.

**“Devonu lug'otit turk” asaridagi so'zlar bilan shevalardagi shaklan va mazmunan bir xil so'zlar.** Ancha – shuncha [Индекс, 20], angladi – angladi [Индекс, 21], araladi – orasidan o'tdi [Индекс, 21], apa – ona [Индекс, 21], arı – arı [Индекс, 21], arıq – orıq, zaif [Индекс, 22], arpa – arpa [22], atadi – 1. atadi 2. laqab berdi [Индекс, 26], axsadi – oqsadi [Индекс, 28], Ačidi – 1. Achidi. 2. achishdi [Индекс, 28], ačitti – 1. achitdi. 2. ko'nglini ranjitdi [Индекс, 28], ačışdi – achish paydo bo'ldi [Индекс, 28], egdi – egdi [Индекс, 38], egri – egri [Индекс, 38], ezgu –

ezgu, yaxshi [39], ekildi – ekildi, sepildi [Индекс, 41], erkäk – erkak [Индекс, 47], ertä – erta [Индекс, 48], esdi – esdi [Индекс, 49], eski – eski [Индекс, 49], Esnädi – esnadi [Индекс, 49], esssiz – essiz [Индекс, 50], et – et, go’sht [Индекс, 50], etäk – etak [50], etik – oyoq kiyim [Индекс, 50], bayram – bayram [Индекс, 54], balčiq – balchiq [Индекс, 55], barcha – barcha, butun, hamma [Индекс, 55], baqa – baqa [Индекс, 60], baqirdi – baqirdi [Индекс, 61], bezädi – bezadi, bo’yadi [Индекс, 63], bezäk – bezak [Индекс, 63], bezändi – bezandi [Индекс, 63], bezäldi – bezaldi [63], bezgäk – bezgak [Индекс, 63], bezdi – bezdi [Индекс, 63], bezitti- tiratti qaltiratdi [Индекс, 63], belädi – beladi (chaqaloqni beshikka) [Индекс, 64], kömäč – ko’moch [Индекс, 167].

“Devonu lug‘otit turk” asaridagi so‘zlarning ko‘p qismi bugungi kunda shevalarimizda ancha faol qo‘llanayotgani uchun ham, biz ulardan yuqoridagi namunalarni keltirish bilangina cheklandik.

**“Devonu lug‘otit turk”dagi so‘zlar bilan talaffuzda qisman farq qiluvchi, ammo ma’nosi bir xil bo‘lgan shevalardagi so‘zlar.** Shunday so‘zlardan biri devondagi **aşuq** so‘zi bo‘lib *‘odam to‘pig‘i‘* ma’nosini anglatgan [Индекс, 30]. Bugungi kunda janubi-sharqiy Andijon shevalarida *qizil + oshiq = qiziloshiq* to‘piq ma’nosida qo‘llanmoqda. Oshiq so‘zi izohli lug‘atda *‘ayrim hayvonlarning orqa oyogi tizza bo‘g‘imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha‘* degan ma’noni bildiradi (O‘TIL, 3, 599).

**Em** [Индекс, 42] so‘zi shevalarda **emi-do‘mi** shaklida shu ma’nolarda qo‘llanmoqda. Qadimgi turkiy tilda *‘em‘* so‘zi *‘dori, darmon, shifobaxsh o‘simlik‘* ma’nosini anglatgan bo‘lib, *‘davo‘* ma’nosi shundan o‘tib chiqqan [5,463]. Bugungi kunga kelib janubi-sharqiy Andijon shevalarida bolaga biror narsa chiqsa yoxud bola og‘risa, shu bilan yo‘qolib ketsin degan ma’noda irim qilib *yurak ko‘targizish, domlaga dam soldirish yoki shifobaxsh damlama ichirish* jarayonlarida qadimgi *em* so‘zidan keyin *‘dom‘* so‘zini qo‘shib *emi-do‘mi* shu bo‘lsin degan ibora qo‘llanadi. Qiyos: O‘sh-O‘zgan o‘zbek shevalarida *emi-dimi* so‘zi naridan beri, yashirin degan ma’nolarini ifodalaydi [6, 90], janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarida *em* so‘zi *belgi qo‘ymoq, belgilamoq* ma’nolarida ishlatiladi [7, 91].

“Devonu lug‘otit turk” asarida eng qadimgi ovqat nomlari ham keltirilgan bo‘lib, ulardan biri **büşkäl** [86] taomidir. Ushbu taom adabiy tilimizda *lochira* nomi bilan atalib kelinmoqda (O‘TIL, 3, 57). Devondagi **büşkäl** taomi bugungi kunda janubi-sharqiy Andijon shevalarida qisman fonetik o‘zgarish bilan **pöškäl** (Индекс, po‘shkal) deb yuritilmoqda.

Insonning kichkina barmog‘i “Devon”da **jijalaq** [Индекс, 90] deb atalgan. Hozirda bu so‘z adabiy tilda *jimjiloq*, o‘rganilayotgan shevalarda esa *čimčalaq* (chimchalaq) deb qo‘llanmoqda. Insonning ushbu a’zosi shevalarimizda turlicha ataladi: Qarnoq shevasida *činčalaq* (Xolmedova 2005: 47), Qorabuloq shevasida *kičkinä buban, böbäk, čurmältäk* (Begaliyev, 2002:145), Namangan shevasida *žinžäläq*) (Abdullayev 1955:180), Xorazm shevalarida *žilinčäk* (Raximov 1985:80) kabi. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida **čimčäläq, žimžäläq** shakllari amalda qo‘llanadi. Ma’lumot o‘rnida aytish o‘rinliki, T.Qudratovning fikricha *“chimchiloq, jimjiloq* so‘zlari biroz murakkabroq o‘zgarishga duch kelgan. Bunda ma’noni kuchaytirish maqsadida leksik belgi ustiga morfologik belgi ham orttirilgan. Demak, *kičkinäčä qol > činäčä qol*. Keyin *[q], [l]* tovushlari o‘z o‘rinlarini almashtirganlar va *činäčäläq > činäčä > (l) äq > činäčäq > činäčäq || činäčäy* o‘zgarishi kechgan. *n ~ m, č ~ t, č ~ j* mosligi *tinäčäq; čimčiläq, žimžiläq* formalarini keltirib chiqargan” [8, 40].

Izohli lug‘atda *‘Bulturgi, qari (ikki uch yillik), tullagan, tullab chiqqan; ko‘chma ma’noda firibgar, ayyor‘* ma’nolarini bildirgan **tullak** (O‘TIL, 5, 414) so‘zi Devonda *tüläk* shaklida shu

ma’noni bildirib kelgan [Индекс, 293]. O’rganilayotgan shevalarda ushbu so‘z *ayyor, mug‘ombir* ma’nolarini ifodalab keladi.

Devonda *‘kurashdi, zidlashdi, keklashdi, olishdi’* mazmunini ifodalab kelgan **igāšdi** [Индекс, 95] so‘zi hozirda shevalarda fonetik jihatdan  $i > e$  ga o‘zgarib **egāšmāq** (egashmoq) shaklida *kurashmoq, zidlashmoq, keklashmoq, o‘chakishmoq* ma’nolarida qo‘llanadi.

**Kömāč** (ko‘mach) qozonda yoki o‘tda pishirilgan non. Ushbu mahsulot nonning bir turi bo‘lib, asosan, Mushkulkushot, Buseshanbi kabi marosimda pishiriladi. Shartiga ko‘ra *ko‘mach non* achitqi solinmasdan, marosim shartlariga ko‘ra irim qilib yettita qo‘shni xonadonlardan tilangan undan tul ayol tomonidan tayyorlanadi. Yoshi ulug‘ momolarning aytishiga qaraganda, ko‘mach nonni faqat tul ayollar va oila qurmagan qizlarga yeyishi mumkin. Yoshi ulug‘lar marosimning bu shartini shunday izohlashadi: beva ayol muhtoj bo‘ladi, muhtoj ayolning va qizlarning duosi ijobat bo‘ladi degan umidda taom faqat mazkur shaxslar tomonidan iste‘mol qilinadi. Ushbu non turi. Bu ot qadimgi turkiy tilda *‘chuqurga joylab, ustini tuproq bilan berkit’* ma’nosini anglatuvchi *köm* fe‘lidan  $-(\ddot{a})\check{c}$  qo‘shimchasi bilan yasalgan. O‘zbek tilida  $\ddot{o}$  unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan:  $k\ddot{o}m- + \ddot{a}\check{c} = k\ddot{o}m\check{a}\check{c} > kom\check{a}\check{c}$ [5,227] shakliga kelgan. Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish joizki, “qovurilgan bug‘doy”ga nisbatan Qashqadaryo shevalarida “ko‘rmach” so‘zi qo‘llanadi [9, 57]. Janubiy Farg‘ona shevalarida fonetik jihatdan o‘zgarishga uchrab *komoč* [10,210] (*ko‘mo‘ch*), Xorazm shevalarida *kömāč* [11, 111] “qozonda pishirilgan non”, Surxondaryo o‘zbek shevalarida *kömmä* shakllarida shu ma’noda qo‘llanadi [12, 67]. Janubiy Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida *kömāč* (ko‘mach) so‘zi “chig‘irning g‘ildirak shaklidagi tig‘li asbobi” ma’nosini bildiradi [13, 94]. Ma’lumot o‘rnida aytish o‘rinliki, “Qadimiy yozma yodgorliklarda va eski o‘zbek adabiyotida uchrashidan bu so‘zning uzoq tarixga egaligi ko‘rinadi. Chunonchi “Devonu lug‘otit turk”da **kömāč** – *ko‘moch. O‘choqda chog‘ga ko‘mib pishiriladigan non* (ДЛТ, I, 341). Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning boshqa sinonimlari borligidan ham darak bergan: **közmän** – *ko‘rda pishirilgan non*, **ičbiri** – *issiq kulda pishirilib, yoqqa to‘g‘rab, ustiga shakar sepib yeyiladigan non* (ДЛТ, I, 159), **ulma** – *kulda pishiriladigan non* ma’nolarida ham qo‘llanishi mumkin. Bu ovqat nomi XIV asrda Alisher Navoiy asarlarida **ko‘moch** shaklida uchraydi (Mahb.qulub, 1940, 150-bet)” [14, 33-38].

*‘Yungdan bosib tayyorlanadigan qalin, pishiq palos, namat’* adabiy tilda **kigiz** deyiladi. Devonda shu mazmundagi narsa-buyum **küvüz** deb nomlangan [Индекс, 171]. Janubi-sharqiy Andijon hududida esa **kijiz** (kiyiz) deb ataladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, **küvüz** so‘zi talaffuz jihatidan adabiy tildan ko‘ra shevalarda ancha asliga yaqinroq talaffuz qilinadi.

Qadimgi turkiy tilda *istamoq, xohlamoq* ma’nolarini bildirgan **küsädi** [Индекс, 175] so‘zi bugungi kunga kelib ham adabiy tilda va shevalarda shu ma’noda qo‘llanmoqda.

Devonda adabiy tildagi *‘urib yanchish, tuyish uchun ishlatiladigan, yog‘och yoki metaldan yasalgan maxsus idish’ hovoncha* deyiladi (O‘TIL, 6, 423). Devonda shu vazifani bajaruvchi predmet **suqu** [Индекс, 235] deb nomlangan. Tadqiqot ishi olib borilayotgan areallarda esa **soqi** deyiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga *so‘qi* so‘zi *shv.* belgisi ostida kiritilgan.

Izohli lug‘atga *shv. To‘qoch* so‘zi: 1. *Katta bo‘g‘irsoq*. 2. *Kulcha non* semalarini anglatib kelishi yozilgan. Mazkur so‘z “Devonu lug‘otit turk” asarida **Toquč** shaklida [Индекс, 277], o‘rganilayotgan hududlarda esa *toqāč* shaklida *kichkina non, kulcha* ma’nolarida qo‘llanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida **üşik** – qattiq sovuq [Индекс, 317], **üşidi** – ushidi junjikdi ma’nolarini ifodalab kelgan [Индекс, 317]. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida **üşük urdi** birikmasi bilan qo‘llanuvchi adabiy tildagi *sovuq yedi* iborasi devonda **üşüklädi** shaklida *sovuq urdi, sovuq yedi* ma’nolarida qo‘llanishi aytilgan [Индекс, 317]. Qiyos: mazkur so‘z Qorabuloq

shevasida *üşümäk* [21, 103], Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida *ušimāq* ko‘rinishlarida qo‘llanadi [14, 106].

Qish kunlarida qattiq sovuq bo‘lganda meva va sabzavotlarni ichiga muz kirib qoladi. Bunday holatni ifodalash uchun adabiy tilimizda *sovuq urmoq* iborasi ishlatiladi. Janubi-sharqiy Andijon lingvoarealida bu ibora bilan bir qatorda **üşük ürmāq** (ushug urmoq) iborasi qo‘llaniladi. *Kärtilškä, sävzlärdi paxal bilän oräp qojış, üşüg ürüp ketmäsin. Ettädän čillä kirädi. Qışti čilläsi heş närsäni äjämäjdä.* Qiyos: mazkur so‘z *qattiq sovuq* ma‘nosida Turkistondagi o‘zbek shevalarida ham *ushuk* [15, 329], *sovuq* ma‘nosida Surxondaryo o‘zbek shevalarida *ušuk*, Xorazm shevalarida *ušuq* shaklida sovuq ma‘nosida qo‘llanadi. Sh.Rahmatullayev *ushimoq* fe‘li haqida shunday deydi: “Bu ot qadimgi turkiy tildagi ‘*sovuq qot*’ ma‘nosini anglatgan –*üşi* fe‘lidan –*k* qo‘shimchasi bilan yasalgan. Qadimgi turkiy tildayoq bu fe‘lning *üşü-* shakli ham shunga ko‘ra *üşik* otining *üşük* shakli ham mavjud bo‘lgan. Keyinchalik o‘zbek tilida *ü* unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: *üşü- + k = üşük > ushuk* [5, 397] shakliga kelgan. Shevaga xos bo‘lgan so‘z **ushuk I shv. Sovuq.** tarzida izohli lug‘atga kiritilgan (O‘TIL, 5, 636).

Bugungi kunda tadqiqot ishi olib borilayotgan hududlarda *ho‘l, ingichka daraxt novdasiga* nisbatan qo‘llanayotgan **čuvuq** so‘zi qadimgi turkiy tilda **čibiq** shaklida *ho‘l novda* ma‘nosida qo‘llangan [Индекс, 327].

“Devonu lug‘otit turk” asarida *namlandi* ma‘nosida qo‘llangan **čilandī** [Индекс, 327] so‘zi janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida **čilāmāq** shaklida *suvga bo‘ktirmoq, suvga aralash-tirmoq* ma‘nosida qo‘llanadi: *kōmirdi mājdasini jaxšilap čilap pečkägä sāl.*

Adabiy tilda va izohli lug‘atda *tugmoq, bog‘lamoq* so‘zlari janubi-sharqiy Andijon shevalarida **čigmāq** (chigmoq) shaklida qo‘llanadi. “Devonu lug‘otit turk” asarida **čigildi** so‘zi *bog‘landi* ma‘nosini ifodalab kelgan [Индекс, 331]. Ko‘p tilshunoslar shevalardagi *chigmoq* so‘zi *tugmoq* so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shakli deb hisoblashadi. Yuqoridagi fikrlar haqiqatga yaqin ekanligi asosli, ammo bizning fikrimizga ko‘ra, mazkur so‘z “Devonu lug‘otit turk” asarida *bog‘lamoq* mazmunidagi *chigmoq* so‘zining ayni o‘zi. Chunki *tugmoq* so‘zida *bog‘lamoq, chigmoq* ya‘ni ikki predmetni, masalan tugunning yoki arqon uchlarini biriktirmoq semasi to‘lalgicha anglashilmaydiganday nazarimizda.

Janubi-sharqiy Andijon shevalarida *kir juda ko‘p bo‘lganidan biror tig‘li asbob (pichoq) yordamida qirib tozalanadigan darajadagi kir qaqač* deyiladi. Odatda, bu turdagi kir yog‘lama ustiga chang qo‘nishi natijasida hosil bo‘ladi. “Devonu lug‘otit turk” asarida ham **Qaqač** so‘zi *kir* [Индекс, 259] ma‘nosida kelgan.

Izohli lug‘atda *‘yolvorib yig‘lamoq’* ma‘nosida qo‘llanuvchi **siqtamoq** (O‘TIL, 6, 657) fe‘li qadimgi turkiy tilda quyidagi shakllarda qo‘llangan: **sixit** – yig‘i, **sixtati** – yig‘latdi, [Индекс, 221]. Tadqiqot olib borilayotgan shevalarda ham shu ma‘noda qo‘llanmoqda.

Izohli lug‘atda *biror ish-harakat qilishga botinolmay istihola qilmoq, tortinmoq, iymannoq qimtinmoq moddiy qiyinchilikda yashamoq* (O‘TIL, 4, 153) ma‘nolarini ifodalab kelgan **qisinmoq** so‘zi janubi-sharqiy Andijon shevalarida izohli lug‘atdagi ma‘nodan birmuncha farq qiladi. Shevalardagi **qisindi** (qisindi) so‘zi *tejamoq* so‘zining salbiy ma‘no ottenkasini o‘zida saqlovchi *qurumsoqlik qildi* ma‘nolarida qo‘llanadi. “Devonu lug‘otit turk” asarida ham **qisindi** so‘zi *qurumsoqlik qildi* ma‘nosini ifodalab kelgan [Индекс, 366].

O‘rganilayotgan shevalarda **qujqälāmaq** (quyqalamoq) so‘zi, asosan, *qo‘y va sigirning kalla va tuyoqlarini (xolodes va shu kabi yaxna taomlar pishirish uchun), parrandalar so‘yilganda (tovuq, kurka) ularning tuklarini kuydirishga nisbatan* qo‘llanadi. Izohli lug‘atda mavjud bo‘lmagan ushbu so‘z devonda **qujqaladi** shaklida *terisini qaynatib tozaladi* ma‘nosida kelgan

[Индекс, 375]. Demak, ko‘rinib turibdiki, devondagi mazkur so‘z ham janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida ma‘nosi kengaygan holda qo‘llanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida berilgan so‘zlarning bugungi kunda janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida boshqa ma‘noda qo‘llanishi. “Devonu lug‘otit turk” asarida *adaš* so‘zi *do‘st, o‘rtoq* ma‘nolarini ifodalab kelgan [Индекс, 11]. Bugungi kunda *adash* so‘zi ismlari bir xil bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadi.

*Ališdi* so‘zi devonda *undirishdi* ma‘nosini bildirgan [Индекс, 17]. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida esa *narsalarni bir-biriga ayirboshladi* ma‘nosida qo‘llanadi.

“Devon lug‘otit turk” asarida *arīdi* so‘zi *tozalandi* ma‘nosida qo‘llangan [Индекс, 22]. Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda *nihoyasiga yetdi, tugadi, oxirladi* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu so‘z ma‘nosi *borligi ketmoq, yo‘qolmoq (bor holda davom etayotgan narsalar haqida)* deya ifodalangan (O‘TIL, 1, 134).

O‘rganilayotgan shevalarda va adabiy tilda *o‘tin aralash uchun foydalaniladigan mehnat quroli* nomini atab kelgan *arra* so‘zi qadimgi turkiy tilda shu shaklda 1. *Peshob*. 2. *Eshaklarni sug‘orishda qo‘llanadigan so‘z* ma‘nolarini ifodalab kelgan [Индекс, 23].

*Badaniga et bitmagan; ozg‘in, kamgo‘sh* ma‘nolarini ifodalab keluvchi adabiy tildagi *oriq* so‘zi o‘rganilayotgan arealarda fonetik jihatdan o‘zgarish bilan *arriq* (*arriq*) shaklida qo‘llanadi. Qadimgi turkiy tilda *arriy* so‘zi *juda toza narsa* ma‘nosida qo‘llangan [Индекс, 23].

“Devonu lug‘otit turk” asarida *art* so‘zi 1. *Tog‘ tepasi, dovon*. 2. *Orqa bo‘yin* ma‘nolarini ifodalagan [Индекс, 23]. Qadimgi turkiy tildagi *art* so‘ziga omonim sifatida bugungi kunda *art* so‘zi *tozalamoq, artmoq* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi.

Qadimgi turkiy tilda *ortdi* mazmunidagi *artīndi* so‘zi [Индекс, 23] bugungi kunda *artmoq* fe‘lining o‘zlik nisbati bo‘lib qo‘llanadi: *sochiq bilan artindi*.

Devonda *axtardi* – 1. *ag‘dardi*. 2. *yer ag‘dardi* kabi ma‘nolarni ifodalab keladi [Индекс, 28]. Janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida *āxtarmoq* (*oxtarmoq*) shaklida *izladi, axtardi* ma‘nolarini ifodalaydi.

*Yaxshi boqdi, yaxshi asradi* ma‘nolaridagi “Devonu lug‘otit turk”dagi *ačīndi* [Индекс, 28] so‘zi bugungi kunda shevalarda *rahmi keldi* ma‘nosida qo‘llanadi.

Qadimgi turkiy tilda *chiqmoq istadi* ma‘nosini ifodalagan *aysadi* [Индекс, 33] so‘zi janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida *oyog‘i og‘riyotganligi sababli oqsadi*, ko‘chma ma‘noda esa *qiynaldi* ma‘nosida qo‘llanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida mehnat ma‘nosini ifodalab kelgan *emgak* [Индекс, 43] so‘zi o‘zbek tilining ko‘p shevalarida *mehnat, qiyinchilik, azob-uqubat* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi. Ammo janubi-sharqiy Andijon shevalarida *liqildoq* ma‘nosini bildiradi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida *en* so‘zi *o‘nqir-cho‘nqir* [Индекс, 44] ma‘nosini bildirishi ko‘rsatilgan. Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda *libos tikish uchun ma‘lum miqdorda qirqib qo‘yilgan mato* ma‘nosini bildiradi. Izohli lug‘atda esa *en* so‘zi *narsaning ko‘ndalang yo‘nalishdagi kattaligi, kengligi; Bir kiyimlik gazlama; belgi, tamg‘a* (adashtirmaslik uchun qoramol yoki qo‘y qulog‘ida hosil qilingan kesik) ma‘nolarini ifodalab keladi (O‘TIL, 2, 39).

Qadimgi turkiy tilda *kuchaytiruv yuklamasini* bildirgan *ep* so‘zi [Индекс, 45] adabiy tilda va o‘rganilayotgan shevalarda *o‘ziga munosib bilmoq, ma‘qul ko‘rmoq* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi. Izohli lug‘atda *ep* so‘zi *bajarish, uddalash qobiliyati, bilmoq* fe‘li bilan birga qo‘llanib, asosan, bo‘lishsiz shaklda *o‘ziga ma‘qul, munosib bilmoq* shakllarida qo‘llanishi aytilgan (O‘TIL, 2, 46).

Bugungi kunda adabiy tilda va shevalarda *qiynalmay, qiyinchiliksiz, bemalol* (O‘TIL, 2, 56) ma’nolarida qo‘llanayotgan **erkin** so‘zi qadimgi turkiy tilda **to‘plangan** degan ma’noda berilgan [Индекс, 47].

*Eshiladigan, cho‘ziladigan* kabi ma’nolarni atab keluvchi qadimgi turkiy tildagi **eşilgän** [Индекс, 52] so‘zi adabiy tilda **eshilmoq** shaklida *aylantirib, burab, tovlab pishiq qilmoq; kokil kabi taralmoq, ipakday mayin osilib sochilmoq, muloyim harakat, holat kasb etmoq* kabi ma’nolarni ifodalab keladi (O‘TIL, 2, 84). Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda esa *o‘zini ko‘rsatmoq, o‘zida bor narsalarini ko‘z-ko‘z qilmoq, ular bilan maqtanmoq* kabi ma’nolarni ifodalab keladi.

Qadimgi turkiy tilda **baldir** *tog‘ning ko‘tarilib chiqqan joyi; erta, oldin* kabi ma’nolarni ifodalagan [Индекс, 54]. Bugungi kunga kelib *i* unlisining qattiqligi yo‘qolgan **boldir** shaklida yuqoridagi ma’nolarda qo‘llanmaydi, balkim oyoqning tizzadan to‘piqqacha bo‘lgan qismini atab keladi.

Qadimgi turkiy tilda **başaq** so‘zi *o‘q va nayza uchidagi temir; o‘qning uchi; boshmoq to‘puq* [Индекс, 59] kabi ma’nolarni ifodalab kelgan. Bugungi kunda esa fonetik jihatdan o‘zgarishga uchrab **boshog‘i** shaklida **bug‘doy boshog‘i** ma’nosida qo‘llanmoqda.

“Devonu lug‘otit turk” asarida *bo‘lishdi, yon berdi; ahd qildi* ma’nolarini ifodalab kelgan **boluşdi** [Индекс, 72] so‘zi **bölišdi** (bo‘lishdi) shaklida janubi-sharqiy Andijon shevalarida yuqoridagi *yon berdi* ma’nosi bilan bir qatorda **unashtirdi** ma’nosida ham qo‘llanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asarida *bir xil ovqat turini* atab kelgan **bulyama** so‘zi [Индекс, 78] adabiy tilda va shevalarda *‘biror narsani iflos, kir narsaga belamoq, botirmoq, hamma yog‘ini iflos qilmoq’* mazmunini ifodalovchi **bulg‘amoq** so‘zining bo‘lishsiz shakli hisoblanadi va *yomon qilma* ma’nosida qo‘llanadi.

**But** so‘zi qadimgi turkiy tilda quyidagi: 1. *son, oyoq*. 2. *taqiladigan firuza tosh*. 3. *katta bir sovg‘ani keltiradigan kishiga beriladigan mukofot* kabi ma’nolarda qo‘llangan [Индекс, 80]. Adabiy tilda va shevalarda *to‘liq, hech qanday kamchiligi yo‘q; bekam-u ko‘st, yetarli; ta‘min etilgan; Sinmagan, butun, shikastlanmagan sog‘* kabi ma’nolarda qo‘llanadi.

*Umurtqa yoki ko‘krak qafasining qiyshayib o‘sishi natijasida hosil bo‘ladigan do‘mboqlikni* atab kelgan adabiy tildagi va shevalardagi **bukur** so‘zi qadimgi turkiy tilda inson tana a‘zolaridan biri bo‘lgan **buyrak** nomini atab kelgan [Индекс, 84].

*Ikki chiziqning bir nuqtada tutashib hosil bo‘ladigan oraliq* ma’nosini bildiruvchi **bürçäk** so‘zi “Devonu lug‘otit turk” asarida 1. *odamning kokili*. 2. *Otning yoli* kabi ma’nolarni bildirgan [Индекс, 85].

Qadimgi turkiy tilda **bütä** so‘zi *ko‘p, mo‘l* kabi ma’nolarni ifodalagan [Индекс, 85]. Adabiy tilda va shevalarda *tagidan shoxlab o‘sadigan mayda pastak daraxt; o‘simlik* ma’nosida qo‘llanadi.

**Bütti** so‘zi “Devonu lug‘otit turk” asarida: 1. *Tuzaldi*. 2. *Iqror bo‘ldi*; 1. *So‘ndi* 2. *Isbotlandi*; 1. *Tug‘ildi* 2. *Yaratildi* kabi ma’nolarni bildirib keladi [Индекс, 85-86]. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida *tugadi, nihoyasiga yetdi* kabi ma’nolarda qo‘llanadi.

Devonda **irq** so‘zi *mo‘ljal qilish, fol ochish* kabi ma’nolarni ifodalashi keltirilgan [Индекс, 93]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da **irq** so‘zi *nasl, zot; kishilarning yuz, soch va teri rangi; yuz yonoq* ma’nolarini ifodalab kelishi ko‘rsatilgan (O‘TIL, 2, 542). Janubi-sharqiy Andijon shevalarida *irq* so‘zi *munosabat, harakter* ma’nolarida ham qo‘llanadi: *hiç senlärdi irqiñ kelişmädi*.

**Iskādi** - *titdi, mo'yini yuldi* [Индекс, 100]. Adabiy tilda va shevalarda **hidladi** ma'nosida qo'llanadi.

Adabiy tilda va shevalarda *me'yoriy darajasiga yetmoq, tobiga kelmoq, pishib iste'mol qilish darajasiga kelmoq* ma'nosini ifodalovchi **jetildi** (yetildi) (O'TIL, 6, 179) so'zi “Devon”da *yetib olindi* ma'nosini ifodalab kelgan [Индекс, 127].

**Jupandī** – *tortindi, chetlashdi* [Индекс, 142]. Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda *yig'lashdan to'xtadi; rozi bo'ldi, ko'ndi* ma'nolarida qo'llanadi.

*Ko'nib o'rganib qolmoq; qanoat qilmoq; tan bermoq, rozi bo'lmoq* ma'nolarida qo'llanuvchi **ko'nikmoq** (O'TIL, 2, 989) so'zi qadimgi turkiy tilda **könikti** (ko'nikti) shaklida **charchadi** ma'nosida qo'llanadi [Индекс, 168].

**Içikti** - *o'z xohishi bilan taslim bo'ldi, dushman tomonga o'tdi* [Индекс, 102]. Adabiy tilda va o'rganilayotgan shevalarda *kuchli darajada ko'rishish ishtiyoqida kasal bo'lib qolmoq* ma'nosida qo'llanadi (O'TIL, 2, 604).

Adabiy tilda va shevalarda *hadab gapiraverdi, vaysadi* mazmunini ifodalovchi **žavradi** so'zi qadimgi turkiy tilda *quvvatli bo'ldi* ma'nosida qo'llangan [Индекс, 104].

“Devonu lug'otit turk” asarida **jaladi** so'zi *shubhalandi* ma'nosini ifodalashi ko'rsatilgan [Индекс, 108]. Adabiy til va shevalarda *ta'mini bilish uchun tilini tekkizdi* ma'nosida qo'llanadi.

Izohli lug'atda *biror narsa yasash, to'g'rilash maqsadida qirqmoq, kesmoq, tarashmoq* mazmunidagi **yo'nmoq** (O'TIL, 6, 312) so'zi “Devonu lug'otit turk” da **jondi** (yo'ndi) shaklida *qusdi* ma'nosida qo'llanadi [Индекс, 135]. Janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida *yo'nmoq* so'zi *ozaytirmoq* ma'nosida qo'llanadi.

“Devon”da *bino qoldig'i; idish og'zi* ma'nosidagi **jurt** so'zi [Индекс, 143] bugungi kunda **vatan** ma'nosida qo'llanmoqda.

Adabiy tilda va shevalarda *ikki tomonga tortib orasini ochmoq; ko'chma maqtanmoq, g'ururlanmoq* ma'nolarini ifodalovchi **kerilmoq** so'zi “Devon”da *esnadi, kerishdi* kabi ma'nolarda keladi [Индекс, 155]. Bizningcha, “Devon”da mazkur so'zning izohlanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mohiyatan kerishmoq so'zi bilan ayni bir xil. Chunki kerishish harakati amalga oshirilganda ham qo'llar yuqoriga ko'tariladi va ikki tomonga yoziladi.

“Devonu lug'otit turk” asarida **maraz** – 1. *Qorong'u kecha*. 2. *Yollangan ishchi* ma'nolarida keladi [Индекс, 179]. Izohli lug'atda *yiring olgan, fasod bog'lagan yara; yaramas, zararli nuqson, illat* kabi ma'nolarni ifodalaydi. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida *narsasini birovdan ayaydigan, bermaydigan* ma'nosini bildiruvchi *qizg'onchiq* so'ziga sinonim qo'llanadi.

Qadimgi turkiy tilda **tarindī** so'zi 1. *Kishi ekin ekdi*. 2. *Kishi o'zini ekin ekayotganday qilib ko'rsatdi* kabi ma'nolarda keladi [Индекс, 249]. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida **tārinmāq** (torinmoq) shaklida *arazlamoq* ma'nosida qo'llanadi.

“Devon”da *belning ichki qismidagi tomir* mazmunini ifodalovchi **özäk** so'zi [Индекс, 194] janubi-sharqiy Andijon shevalarida *sabzavotlarning o'rtasidagi qattiq qismiga nisbatan: karam o'zagi, sabzi o'zagi* kabi (ЎХШШ, 202). Qadimgi turkiy tildagi **o'zak** so'zi va bugungi kunda qo'llanayotgan **o'zak** so'zi mohiyatan bir-biriga yaqin ma'noni bildiradi. O'zak ham *sabzavotlarning o'rtasida* joylashadi, “Devon”dagi o'zak so'zi ham belning ichki qismida joylashgan tomir ma'nosini anglatadi. Har ikki sema ham narsaning asosi hisoblanadi.

“Devonu lug'otit turk” asaridagi so'zlarning ma'no ottenkalari va qisman talaffuzi **o'zgargan holda shevalarda qo'llanishi**. Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda **içirkāndi** (ichirkandi) so'zi *jirkandi, seskandi* ma'nolarida qo'llanadi. “Devonu lug'otit turk” **Isirkāndi** – *qizilcha toshdi* [Индекс, 100].

Yigitlar va qizlarning peshonasidagi kesilgan sochi bugungi kunda shahar shevalarida rus tilidan kirib kelgan **čölkä** (*cho'lka*) so'zi orqali ifodalanadi. Andijon shevasida esa **pät** (*pat*) deyiladi. Shevaga xos bo'lgan bu so'z izohli lug'atdagi *parrandaning dum va qanotlarini tashkil qilgan, muguzsimon uzun naychaning ikki yonida ikki qator bo'lib o'sib chiqadigan parlardan iborat a'zosi* mazmunidagi **pat** so'zi bilan omonim qo'llanadi (O'TIL, 3,677). Shevada bu bilan bog'liq *pat kesish, pat qirqish, pat tushirish* kabi so'z birikmalari ham mavjud. O'zbek tilining izohli lug'atida ham bu so'z bergan ma'noni ifodalovchi leksema mavjud emas. “Devonu lug'otit turk” asarida **qirqilgan zulf, soch** ma'nolarini ifodalab **kesmä** so'zi keltirilgan [Индекс, 157].

“Devonu lug'otit turk” asarida *qatiq uyitish uchun olib qo'yilgan ozgina qatiq* semasini bildiruvchi *tomizg'i* mazmunida berilgan **qor** so'zi (Индекс, 371) janubi-sharqiy Andijon shevalarida **ujitqi** (*uyitqi*) so'zi bilan ifodalanadi. Shevalarni yondosh tillarga va shevalarga solishtirish shevalarni yanada oson o'rganishimizni ta'minlaydi: Adabiy tilda bu vazifadagi so'z *ivitqi, tomizg'i, oqliq* kabi leksemalar bilan yuritiladi. Qurama o'zbek shevalarida **ujutqi** (*uyutqi*) (6, 171), Pop shevalarida *äxliy* [16, 187], *Sayram o'zbek shevalarida tamizyi* (3.C. 135), Turkiston shevalarida *achitqi* [17, 279], janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalarida *tamizyi* [7,150], Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida *tamiziq, tamizyi*, Navoiy viloyati shevalarida *tamizyi* [18, 59], Forish shevalarida *qor* [19, 51-54] shaklida qo'llanadi.

“Devonu lug'otit turk” da **toymaq** (Индекс, 275) so'zining ma'nosi quyidagicha izohlangan: I. Muzlamoq. II. Sovuq qotmoq. Janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida ushbu so'z *sovqotmoq (issiq kijin suuqta tojib qalasan), muzlamoq (kartiškani orap qoj kečqurun tojip qaladi)* kabi “Devon”dagi ma'nolar bilan bir qatorda, asosan, hayvon (jizza qilingandan keyingi, yoki qaynatma sho'rvadagi qo'y yog'i) yoki o'simliklardan olingan (saryog', margarin) yog'iga nisbatan *qotmoq* ma'nosida ham qo'llanadi: *šörväni tezraq iç, jāyi tojip qaladi*. Shu o'rinda aytishingiz mumkin, yog' mahsulotlari sovugandan keyin to'nglaydi deb. Yo'q, bizningcha yog'ning sovushi va to'nglashi orasida oz bo'lsa-da farq bor. Sovugan yog' yoyilgan xamirga suziladi, ammo to'nglagan yog' xamirga qotib qoladi, yoyilmaydi (buni pazanda ayollar yaxshi biladi). Shu sababli ham surilmay qotib qolingan yog'semasini ifodalash uchun shevada *to'nglamoq* so'zi qo'llanadi. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, “Qutadg'u bilig” asarida ham *to'ngmoq* so'zi *muzlamoq* ma'nosida qo'llanadi [22, 7]. Qiyos: Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida ham *to'ngmoq* so'zi *muzlamoq va sovuq qotmoq* ma'nolarida qo'llanadi [23, 77-79].

Devonda **alqindi** so'zi *tugadi, tamom bo'ldi* ma'nolarini ifodalab kelgan [Индекс, 18]. Bugungi kunga kelib **alqindi** (olqindi) shaklida shevalarda ushbu so'zning ma'nosi torayib faqatgina *ko'p foydalanish natijasida yeyilib oz qolgan sovun qoldig'iga* nisbatan qo'llanadi.

Qadimgi turkiy tilda **aqur** so'zi *otxona* ma'nosini ifodalagan [Индекс, 31]. Fikrimizcha, *hayvonlar yemish yeyishi uchun mo'ljallangan temir, yog'och, yoxud boshqa predmetlardan yasalgan buyum* “Devonu lug'otit turk”dagi *aqur* so'zidan hosil bo'lgan. Tadqiqot ishi olib borilayotgan hududlarda fonetik o'zgarishga uchrab *a > o* ga, *q > x* ga almashib **oxur** tarzda *hayvonlarga yem beradigan idish* ma'nosini bildiradi.

Qadimgi turkiy tilda **buladi** so'zi *pishirdi* ma'nosini ifodalab keladi [Индекс, 77]. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida *pishirmoq* ma'nosida emas, balkim, *biror narsaga botirmoq* ma'nosida qo'llanadi.

“Devonu lug'otit turk” asarida *tezakning bir biriga aralashib, yopishib ketgani* semasini ifodalovchi **göjüz** shaklida berilgan [Индекс, 86]. Ushbu so'z bugungi kunga kelib fonetik jihatdan o'zgarishga uchrab **göj** shaklida devondagi ma'no bilan bir qatorda, asosan, o'simliklar uchun *chirindi, o'g'it* ma'nosida ham qo'llanmoqda.

Devonda **qurč** so‘zi *chidamli, pishiq* ma’nolarini ifodalab kelgan [Индекс, 379]. O‘rganilayotgan janubi-sharqiy Andijon lingvoareallarida **qurč (qurch)** metaldan yasalgan mehnat qurollari (bolta, tesha, o‘roq) va uy-ro‘zg‘or buyumlari (qaychi, pichoq)ga nisbatan *o‘tkir* ma’nosida qo‘llanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu so‘zning shevalarda qo‘llanishi ham devonda izohlangan semadan uzoqlashmagan. Shevalardan birmuncha farqli ravishda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **Qurch I esk. ayn. bronza. Qurch II** ‘*tig‘iz, niq; tarang; zarang*’ kabi ma’nolarda kelishi aytilgan (O‘TIL, 4, 297).

“Devonu lug‘otit turk” asarida **ešik** so‘zi *eshik ostonasi* ma’nosini bildirgan [Индекс, 52]. Adabiy tilda *uy yoki xonaning o‘rnatiladigan, ochib-yopib turiladigan qurilish buyumi; umuman odam, narsalar joylashadigan qurilmaning kirib-chiqiladigan qismi* kabi ma’nolarni ifodalab keladi (O‘TIL, 2, 82). Tadqiqot olib borilayotgan shevalarda **eshik** so‘zi yuqoridagi semalarni ifodalash bilan bir qatorda *butun boshli bir uy, hovli, turmush qurgan qizlar uchun ota uyi, boshqa uyga ko‘chib chiqqan oilalar uchun esa ota-onasi istiqomat qiladigan uy* nazarda tutiladi.

Qadimgi turkiy tilda **em - davo, emladim** – davo qildim [Индекс, 44] ma’nosini bildiradi. Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda esa **emladim** so‘zi *ozgina bo‘lsa ham (nimadandir) berdim* ma’nosida, adabiy tilda esa biror kasallikka chalinmasligi uchun vaksina qabul qilindi ma’nolarida qo‘llanadi.

Qadimgi turkiy tilda **iridi** so‘zi *chiridi* ma’nosida qo‘llangan [Индекс, 99] **irimoq** so‘zi adabiy tilda barcha mahsulotlarga nisbatan *yaroqsiz holatga kelmoq* ma’nosida qo‘llanadi. Janubi-sharqiy Andijon shevalarida ma’no jihatdan torayib **irimāq (irimoq)** faqat **sut mahsulotiga** nisbatan qo‘llanadi. Bu fe‘l qadimgi turkiy tildagi *buzilib, tabiiy sifatini yo‘qotgan narsa* ma’nosini anglatgan *yir* otidan *-i* qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik so‘z boshlanishidagi *y* undoshi talaffuz qilinmay qo‘ygan: *yir + i = yiri > iri* [5,1 21]shakliga kelgan.

“Devon”da **eritdi** mazmunidagi **sizyurdī** [Индекс, 219] so‘zi tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda **sizyirmāq (sizg‘irmoq)** shaklida *sariyog‘* so‘zi bilan birga qo‘llanib *qaymoqni olovda qizdirib sariyog‘ olish* jarayoniga nisbatan **sariyog‘ qilmoq** ma’nosida qo‘llanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu so‘zning anglatib kelayotgan semasi ham devondagi mazmundan uzoqlashmagan.

Qadimgi turkiy tilda *Narsaning bo‘lagi, parchasi* ma’nolarini ifodalaydigan **kesäk** (kesak) [Индекс, 157] so‘zining ma’nosi torayib bugungi kunda *qotgan, qurigan loy bo‘lagini* atab keladi.

“Devon”da *svga sho‘ng‘idi* ma’nosini ifodalaydigan **kirindi** [Индекс, 161] so‘zi bugungi kunda ham janubi-sharqiy Andijon shevalarida *cho‘milib olmoq, yuvimmoq* kabi ma’nolarda qo‘llanadi. Fikrimizcha, *kirinmoq* so‘zining *cho‘milmoq* ma’nosini ifodalashi ham asosli, ushbu so‘z *kir + in* shaklida yasalgan. Qadimgi turkiy tilda *inmoq* so‘zi *yuqoridan pastga harakatlan; yuqoridan pastga harakatlanib biror sathni egalla* [5, 117] kabi ma’nolarda qo‘llangan. Shevada mazkur so‘z inson tanasidan kirlarning suv yordamida pastga tushishiga nisbatan qo‘llanmoqda.

Janubi-sharqiy Andijon sheva vakillari nutqida **söl** (so‘l) leksemasi ikki xil ma’noda qo‘llanadi:

1. Quyuq ovqatlarga nisbatan suvi ko‘proq bo‘lishiga nisbatan ishlatiladi. *Bugun kečka solli šävlä qilärkämiz enäm äjttili.*
2. Qovurilgan go‘sh tga nisbatan ham ishlatiladi. *Baläni sävuyi äšip ketipti, közini qärä, qoj gošini älip žindej söl qiber.*

Devonu lug‘otit turk” asarida ham *sel* so‘zi *go‘sh tdan oqqan suv* ma’nosini ifodalagan

(Индекс, 148). Qiyos: *Janubiy Farg‘ona shevalarida söl so‘zi tuzlangan go‘shdan oqqan qizil suv* [10, 198], *Xorazm shevalarida go‘shning seli ma‘nosida* [20, 83], *Surxondaryo shevalarida kuch, darmon degan ma‘nolarda qo‘llanadi* [21, 75].

**Sundi** so‘zi qadimgi turkiy tilda va adabiy tilda *uzatdi, sundi* ma‘nolarida qo‘llangan [Индекс, 232]. Tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda ushbu so‘z ma‘nosi torayib faqat *oyog‘ini uzatib o‘tirmoq* degan ma‘noda qo‘llanadi.

**Taq** (tang) qolmoq so‘zi tadqiqot ishi olib borilayotgan shevalarda *hayratda qolmoq, hayron qolmoq* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi. “Devonu lug‘otit turk” asarida *taq – ajoyib, g‘alati taajub* kabi ma‘nolarni ifodalaydi [Индекс, 247]. Fikrimizcha ushbu so‘zning shevalarda qo‘llanishi ham qadimgi turkiy tildagi mazmun bilan deyarli bir xil.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shevalarimizni tarixiy-etimologik tamoyilga asoslangan holda o‘rganish orqali biz “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan salmoqli so‘zlar hamon shevalarda mazmun va mohiyatini yo‘qotmagan, ko‘pgina qismi esa qisman fonetik o‘zgarishga uchrab shevalar leksikasining bir qismini tashkil etayotganligining guvohi bo‘ldik. Fikrimizcha, shevalarni ajdodlarimiz o‘tmishda foydalangan so‘zlarga solishtirib o‘rganish nafaqat insonlarga qadimiy urf-odatlar va an‘analarni bilish, o‘tmish bilan bog‘lab unda faxr, iftixor tuyg‘ularini shakllantirish bilan bir qatorda o‘zbek tili, o‘zbek dialektologiyasi, areal lingvistika va tarix fanlariga ham qimmatli ma‘lumotlar beradi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References/Каянаklar:**

1. Содиқов Т. Тошкент область шевалари лексикаси. Дисс. - Тошкент. – 1968. Б 17
2. Ишаев А. “Девону луғотит турк” ва ўзбек шевалари. ЎТА, 5, 1971. –Б 63-67.
3. Darveshov I. Areal tilshunoslik: Janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. – Namangan, 2019. - 19-b.
4. Xidraliyeva Z. O‘zbek tilining Iqon shevasi. – diss. – Toshkent. – 2023. –В 105.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент.: “Университет”. – 2000. –Б 463.
6. Фармонов И. Ўзбек тили Ўш-Ўзган диалектининг баъзи лексик хусусиятлари. – Тошкент. -1983. – Б 90.
7. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент, Фан. 1981. – Б. 91.
8. Қудратов Т. Кичкина қўл...жимжилоқ. ЎТА, 5, 1967. – Б 40.
9. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. - Тошкент. 1999 – Б 57
10. Узоқов Х. Ўзбек тилининг жанубий Фарғона шевалари. Дисс. – Тошкент. 1965. –Б 210.
11. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент. -1960. –Б 111.
12. Рахимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент. – 1974. – Б 67.
13. Ўрозов Э.Ю. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. - Тошент: Фан.- 1978. 94 б.,
14. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилининг диалектологик атласи, ЎТА, 3, 1969, 33-38 Бет.
15. Муҳаммаджонов Қ. Туркистон шевасининг лексик состави. /Қорлуқ группа шевалари материаллари асосида/. – Тошкент. – 1970. – Б 329.
16. Шарипов О. Ўзбек тилининг Поп шеваси. Дисс.- Тошкент. 1962. –Б 187.
17. Муҳаммаджонов Қ. Туркистон шевасининг лексик состави. /Қорлуқ группа шевалари материаллари асосида/. – Тошкент. – 1970. – Б 279.

18. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини. Дисс. Тошкент. – 2007. – Б 59.
19. Юсупов Б. Фориш шеваси ва “Девону луғотит турк”. ЎТА, 3, 1981. 51-54.
20. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент. -1960. –Б 83.
21. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. Тошкент, Фан. 1985. –Б.75.
22. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипсия ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. Тошкент, 1972, - Б.78.
23. Аметова О. Шевалар қадимий созлар хазинаси сифатида. ЎТА. 2, 2009. – Б 77-79.
24. Бегалиев М. Ўзбек тили Қорабулоқ шеваси лексикаси. Дисс. - Тошкент. 2002.
25. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. - Тошкент: Фан. 1967.
26. Ўзбек халқ шевалари луғати. - Тошкент Фан: 1971.
27. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. - Toshkent: G‘afur G‘ulom. 2022.
28. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: I. Тошкент: Фан, 1961.
29. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: II. Тошкент: Фан, 1963.
30. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: III. Тошкент: Фан, 1963.

**BULLETIN OF THE  
INTERNATIONAL JOURNAL  
“TURKOLOGICAL  
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES  
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

**CONTACT ADDRESS:**

**Mailing Address:**

140104, University boulevard, 15,  
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under  
Samarkand State University named after  
Sharof Rashidov

**Phone:**

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

**Telegram ID:**

@turkologiya1

**Email:**

turkologiya.samdu@gmail.com

**Website:**

<https://turkologiya.samdu.uz>



**REQUIREMENTS FOR ARTICLES:**

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
  1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
  2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
  3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone and e-mail address of the author (authors) are indicated in full.
  4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
  5. At the beginning of each article, there should be an annotation in Uzbek, Turkish and English.
  6. The abstract should be no more than 120-150 words.
  7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
  8. The article should be prepared in the following form:
    - a) Introduction;
    - b) Main part;
    - c) Results and Discussions;
    - d) Conclusions;
    - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
    - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
    - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
  3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
  4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
  5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
  6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK  
TADQIQOTLAR” XALQARO  
JURNALINING AXBOROT  
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o‘tkazilgan sammitida ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalarni jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O‘zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES  
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

## MUROJAAT UCHUN MANZIL:

### Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,  
Samarqand, O‘zbekiston,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti huzuridagi  
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

### Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiyal

### Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
  1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
  2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
  3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefoni va e-mail adresi to‘liq keltirilishi kerak.
  4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
  5. Har bir maqola boshida o‘zbek, turk va ingliz tillarida annotatsiya bo‘lishi lozim.
  6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
  7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
  8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
    - a) Kirish (Introduction);
    - b) Asosiy qism (Main part);
    - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
    - d) Xulosalar (Conclusions);
    - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
    - f) Havola(snokalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
    - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЕТЕНЬ  
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА  
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ  
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ  
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

## КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

### Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,  
15, город Самарканд, Узбекистан,  
Научно-исследовательский  
институт Тюркологии при  
Самаркандском Государственном  
Университете имени Шарофа  
Рашидова

### Телефон:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya1

### Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
  1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
  2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
  3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, телефон и адрес электронной почты автора(ов) должны быть указаны полностью.
  4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
  5. В начале каждой статьи должна быть аннотация на узбекском, турецком и английском языках.
  6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
  7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
  8. Статья должна быть подготовлена в виде:
    - a) Вступление (Introduction);
    - b) Основная часть (Main part);
    - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
    - d) Выводы (Conclusions);
    - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
    - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
    - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нереконмендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

## “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



### DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

## İLETİŞİM ADRESİ:

### Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,  
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf  
Reşidov adına Semerkant Devlet  
Üniversitesine bağlı Türkoloji  
Araştırmaları Enstitüsü

### Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya1

### E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

### İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
  1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
  2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
  3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon ve e-posta adresi eksiksiz olarak verilmeli.
  4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
  5. Her makalenin başında Özbekçe, Türkçe ve İngilizce özet bulunmalıdır.
  6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
  7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
  8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
    - a) Giriş (Introduction);
    - b) Ana bölüm (Main part);
    - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
    - d) Sonuçlar (Conclusions);
    - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
    - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
    - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL  
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL  
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Prof. J.Eltazarov

Musahhih va texnik muharrir:

R. Shokirov



ISSN 2992-9229

2024-yil 29-oktabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2024-yil 31-oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı –9.

Adadı 15 nusxa. Buyurtma № 174

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229